



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 14-iyul, № 142 (9313)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



BEKOBODDA YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI NAFASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-iyul kuni Toshkent viloyatining Bekobod shahriga tashrif buyurib, O'zbekiston metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan ishlar va yangi loyihalar bilan tanishdi. Shuningdek, mamlakatimizda qora metallurgiya sanoatini yanada rivojlantirish yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.



Davlatimiz rahbari Bekobod shahriga elektropoyezdda keldi.

Prezidentimizning 2025-yil 27-dekabrda qabul qilingan "2030-yilga qadar temir yo'l transportida mahalliy yo'nalishlarda yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida hududlarda transport infratuzilmasi yangilanib, mahalliy qatnovlar kengaytirilmoqda. Natijada aholi uchun qulay va sifatli transport xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda. Bekobod vokzalida Prezidentimizga

poytaxt va mazkur shaharni bog'lovchi yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berildi.

192 kilometrik Toshkent – Bekobod temir yo'l qatnovi kuniga qariyb ming nafar, yiliga esa 300 ming nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatishi rejalashtirilgan. Endilikda unda olti vagonidan iborat, 586 nafar yo'lovchiga mo'ljallangan elektropoyezd soatiga 120 kilometrgacha tezlikda harakatlanadi. Bu, ayniqsa, har kuni ish va o'qishga qatnaydigan fuqarolar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi.

Elektropoyezdda yo'lovchilar uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus ko'targichlar o'rnatilgan. Vagonlar konditsioner va isitish tizimlari, yumshoq o'rindiqlar, USB quvvatlash nuqtalari hamda Wi-Fi tarmog'i bilan jihozlangan. Shuningdek, videokuzatuv tizimlari, elektron axborot tablolari va velosipedlar uchun maxsus joylar mavjud.

Tezkor elektropoyezdning qatnovga qo'yilishi avtomobil yo'llaridagi transport

yuklamasini kamaytirish va ekologik toza transport ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz temir yo'l infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yo'lovchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, tarmoqlarni elektrlashtirish va temir yo'llarga tutash hududlarni obodonlashtirish yuzasidan mas'uliyatlariga tegishli topshiriqlar berdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari vokzal infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sifati va yo'lovchilar harakatini samarali tashkil

etish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya kombinatida barpo etilgan yangi Quyu-prokatlash majmuasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari kombinat jamoasi, mehnat faxriylari va xorijiy hamkorlarni ushbu muhim voqea bilan tabrikkladi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda kon-metallurgiya sohasini yangi texnologik bosqichga olib

chiqish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan o'n yilda sohaga qariyb 2 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, 31 ta yirik ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Xususiyl sektor qeng yo'l ochilgani natijasida tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarning soni 150 tadan oshdi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

Senat qo'mitasida

MAQSAD – HUJJATLAR IJROSINI TA'MINLASH



Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasida qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlash yuzasidan qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida ishlab chiqilishi hamda

amaliyotga joriy etilishi masalalari muhokama qilindi.

Xususan, "Reklama to'g'risida", "Raqobat to'g'risida", "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida", "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida", "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida", "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida" hamda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlar ijrosini ta'minlash uchun qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinishi yuzasidan monitoring amalga oshirildi.



O'llohshukur POSHSHOZODA,
Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, shayxulislom,
O'zbekiston Respublikasining "El-yurt hurmati" ordeni sohibi:

HURMAT VA EHTIROM RAMZI

7 – 10-iyul kunlari O'zbekistonda o'tkazilgan Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumida ishtirok etish men uchun katta sharaf bo'ldi. Forum doirasida turli mamlakatlardan kelgan olimlar, din arboblari va mutaxassislarining bir maqsad yo'lida jam bo'lganini ko'rib, yana bir bor shunga ishonimki, ilm va ma'rifat insoniyatni birlashtiruvchi eng qudratli kuchdir.

Dil so'zi

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev bilan bo'lib o'tgan samimiy muloqot menda unutilmas taassurot qoldirdi.

Suhbatimiz davomida millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlash, yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, islomning asl

insonparvarlik mohiyatini zamonaviy raqamli platformalar orqali keng targ'ib qilish masalalari xususida fikr almashdik. Bu tashabbuslar bugungi global dunyo uchun nihoyatda dolzarb. Prezident janoblariga O'zbekiston va Ozarbayjon rahbarlarining qardoshlik va ittifoqchilik munosabatlariga bag'ishlangan kitobimni tuhfa qilish men uchun alohida mamnuniyat baxsh etdi.

Chunki mazkur asar ham xalqlarimiz o'rtasidagi ishonch va do'stlikning yana bir ramzidir.

Men uchun yana bir unutilmas voqea – O'zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti – "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlanganim bo'ldi.

Bu ordenni shaxsiy xizmatlarimga berilgan baho sifatida emas, balki Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi mustahkam qardoshlik, o'zaro hurmat va ishonchga berilgan yuksak e'tirof sifatida qabul qildim. Dilim quvonchga to'ldi, o'zbek xalqiga mehrim yanada tovlanib ketdi.



DOLZARB QONUN LOYIHALARI MUHOKAMASI



Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Fraksiyalar hayoti

Iqtisodiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar

Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab, davlatimiz rahbarining 8-9-iyul kunlari Belarus Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi yakunlari yuzasidan fikr almashildi. Fraksiya a'zolari

muzokaralar natijasida erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishi, o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishiga alohida urg'u berdi.



BEKOBOD. MEHR VA METALL TA'RIFIDA

Faxr

Eldoshlarim irodasi temirdan, ham metindan,
Biz birlashsak – buyuk xalqimiz, birgalashsak, biz – Vatan!

Bekobodim, irodasi temir-beton shahrimsan,
Ne-ne oshiq shoirlarga orzu-armon shahrimsan.

Ortga qaytmas shashtlaring zo'r, karvonlaring bor bo'lsin,
Temir-metin irodali sarbonlaring bor bo'lsin!

Tinch bo'lsin deb dunyo tun-kun duo aylar onalar,
Mamlakatga metall kerak milyon-milyon tonmalar.

Ona shahrim, shamollaring bag'ring aro kezgan dam,
She'rim bilan shamol bo'lib esgim kellar mening ham.

Yangi-yangi uy-joylarga mahalla-ko'y to'lgusi,
Bu temirlar ko'rkam, mahkam imoratlar bo'lgusi.

Temir yanglig', metin yanglig' yaxlit bir jonu tanmiz,
Eldoshlarim, bir bo'lsak biz – bir xalqu bir Vatanmiz!

Shoir, sen ham bu hayotni otash she'r'larga to'ldir,
Metallurgiyang shuldir! Metallurgiyang shuldir!

Egatlarida qolib ketgan yillarimning qarzigay,
Ma'danim deb, metinim deb faxrlansam arzigay.

Bizlar farzand o'stirgaymiz – munosib, mutanosib,
O'g'il – qizga munosibdir. Qiz – o'g'longa munosib.

O'g'il-qizda kelajakning jamolini ko'rgaymiz,
Bizlar Vatan o'stirgaymiz, bizlar Vatan qurgaymiz.

O'ylaymanki, bir so'zimni og'ir olmas shoirlar:
Zamon yukin yengillating, qilmang uni og'irlar.

Ko'z oldimda Vaqt emas, gurras solib o'tar So'z,
Davr sendan So'z kutmoqda, zamon sendan kutar So'z.

Bir yuz o'n ming el-ulusning ko'zlariga tik qarab,
She'r'lar aytasang, yuzing yorug' – bu ne tole, ne sharaf!

Siznikidir bu imkonlar – har bir o'g'il-qizniki,
Bu davronlar Siznikidir! Bu zamonlar – Sizniki!

Raqam ursam – saflaringiz o'ttiz mingdan ziyoda,
Shunday o'g'il-qizlarim bor dono, zukko, ozoda.

Temirdanmiz, po'latdanmiz, metindan bir jonu tan,
Biz birlashsak – buyuk xalqimiz, birgalashsak – biz Vatan!

El nomiga keltirmoq-chun rag'batlaru rahmatlar,
Hali qancha mehnat kerak, hali qancha zahmatlar.

Qalbing jo'shar – xuddi metall qaynayotgan qo'radir,
Vatan sendan so'z so'raydir, el-ulus so'z so'raydir.

Qurol-yarog' o'ynab turgan qattol dunyo bir taraf,
Elni kitobga qaytargan insonlarga shon-sharaf!

Temirqanot jo'juqlaring burgut bo'lsin, sor bo'lsin,
Metin irodali mardi maydonlaring bor bo'lsin!

Yangi shahar, Sirdaryodan nariyog'i Xo'janddir,
Temurnalik polvon kelsa – bu tarixiy hujjatdir.

Davru zamon solnomasin tarix o'zi baholar,
Bunda ne-ne chempionlar o'sar, ne-ne daholar.

Temir yanglig', metin yanglig' bizlar bir jonu tanmiz,
Eldoshlarim, biz birlashsak – bir xalqu bir Vatanmiz.

Temirdanmiz, po'latdanmiz, metinmiz – bir jon va tan.
Biz birlashsak – buyuk xalqimiz, birgalashsak, biz – Vatan!..

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

YOSH KIMYOGARLAR BELLASHUVI



Poytaxtimiz yana bir katta anjumanga mezbonlik qilmoqda. Eilik sakkizinchi Xalqaro kimyo olimpiadasi Markaziy Osiyo tarixida ilk bor yurtimizda bo'layotgani katta voqea, albatta.

Maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan dunyodagi eng nufuzli intellektual musobaqalardan biri – "International Chemistry Olympiad (ICHO) 2026" qariyb o'n kun davom etadi. Mazkur bellashuvda 90 dan ortiq davlatlardan ming nafarga yaqin o'quvchilar qatnashmoqda.



MAQSAD – HUJJATLAR IJROSINI TA’MINLASH



Qoʻmita aʼzolari taʼkidlaganidek, qonunlarning amaliyotda toʻliq va samarali tatbiq etilishi ularning ijrosi uchun zarur boʻlgan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarning oʻz vaqtida, sifatli ishlab chiqilishiga bevosita bogʻliq.

Ushbu hujjatlarning oʻz vaqtida joriy etilmasligi ijro tashkilotlari va tadbirkorlar oʻrtasida turlicha talqin hamda yondashuvlarni keltirib chiqaradi,

natijada qonun hujjatlarida huquqiy boʻshliqlar yuzaga keladi.

Senatorlar oʻz chiqishlarida qonunlarning ijrosini taʼminlovchi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish muddatlariga qatʼiy rioya etilishini taʼminlash, bu borada tizimli nazoratni kuchaytirish dolzarb vazifa ekanini taʼkidladi.

Muhokamadagi masala yuzasidan qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

MAHALLIY KENGASHLAR:

MAS’ULIYAT VA NATIJA

Oliy Majlis Senati tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari doimiy komissiyalari aʼzolarining kasbiy salohiyatini yuksaltirish, qonunchilik sohasidagi yangiliklardan xabardorligini oshirish hamda doimiy komissiyalarning Senat qoʻmitalari bilan amaliy hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan oʻquv seminarlari va tadbirlar tashkil etilyapti.

Uchrashuv

Shu maqsadda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari doimiy komissiyalari aʼzolari Senat qoʻmitalari faoliyati bilan yaqindan tanishmoqda.

Ayni kunlarda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi kotibiyati xodimlari Senatning Hududiy vakillik organlari faoliyatini oʻrganish markazida amaliy tajriba oʻtamoqda.

Amaliy mashgʻulotlar davomida Senat qoʻmitalari hamda markaz faoliyatining asosiy yoʻnalishlari bilan tanishilib, mahalliy vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga doir masalalarni hal etishda mahalliy Kengashlarning ishtirokini kuchaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, qonun ijodkorligi

jarayonida mahalliy Kengashlar deputatlarining ishtirokini kengaytirish, ularning taklif va mulohazalarini inobatga olish, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida hududlarning oʻziga xos xususiyatlari hamda mavjud imkoniyatlarini aks ettirishga oid amaliy koʻnikmalar mustahkamlandi.

Bundan tashqari, deputatlarning Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga koʻmaklashuvchi komissiya raisi Anvar Toʻychiyev bilan uchrashuvi ham boʻlib oʻtdi.

Tadbirida mahalliy Kengashlar va ularning doimiy komissiyalari faoliyatini yanada takomillashtirish, Senat qoʻmitalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan parlament nazorati samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Oʻrganish

“QIZIL” TOIFADAGI MAHALLALARGA ALOHIDA YONDASHUV

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov Toshkent shahrining Yashnobod tumanida huquq-tartibotni taʼminlash, jinoyatchilikning oldini olish va ijtimoiy profilaktika ishlarining amaldagi holati bilan tanishdi.

Oʻrganishlar davomida jinoyatchilik darajasi yuqori boʻlgan, “qizil” toifadagi Aviasozlar, Argʻin va Jarqoʻrgʻon mahallalaridagi vaziyat atroflicha tahlilga tortildi. “Mahalla yettilligi” faoliyati, muammolarni oʻz vaqtida aniqlash va yechimlari mexanizmi, huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori boʻlgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkil qilish hamda ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni qoʻllab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar koʻzdan kechirildi.

Shu bilan birga, profilaktika inspektorlari, mahalla vakillari hamda tegishli davlat organlari oʻrtasidagi hamkorlik qay darajada samara berayotgani, jinoyatchilikka sabab boʻlayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan koʻriyotgan choralar ham baholandi.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish, soliq va boshqa majburiy toʻlovlarning shaffofligini taʼminlash, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar ham tahlil qilindi. Davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, aholi murojaatlarini koʻrib chiqish tizimi hamda muammolarga tezkor yechim topish mexanizmlarining samaradorligiga ham alohida eʼtibor qaratildi.

Oʻrganishlardan soʻng Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga

qarshi kurashish qoʻmitasi hamda xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining qoʻshma majlisi boʻlib oʻtdi. Unda tuman ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshligʻi, tuman prokurori hamda qator tashkilotlari rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Yigʻilishda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birgalikda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarga ham alohida eʼtibor qaratildi. Xususan, tumanda joriy yilning olti oyi davomida qayd etilgan 686 ta jinoyatning 295 tasini oldini olish mumkin boʻlgan jinoyatlar tashkil qilgan. 67 ta mahallaning 25 tasi “yashil”, 39 tasi “sariq” va 3 tasi “qizil” toifada baholangan.

Jinoyatchilik hamda yashirin iqtisodiyotning oldini olish maqsadida 4 ta tezkor guruh tomonidan “mahalla yettilligi” bilan 120 ta uchrashuv oʻtkazilgan, jamoat joylarida 658 ta kuzatuv kamerasi oʻrnatilgan, aholini ish bilan taʼminlash maqsadida 4-marta mehnat yarmarkasi oʻtkazilgan, “Aviasozlar” va “Yangiobod” bozorlarida 1 580 ta savdo rastasi va 779 ta doʻkon “Click” tizimiga ulangan, tumanda huquqiy axborot boti ishga tushirilgan.

Tadbirida davlat organlari va tashkilotlariga kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Muhokama yakunida qoʻshma qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

DOLZARB QONUN LOYIHALARI MUHOKAMASI



Yigʻilishda, shuningdek, “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qurilishi tugallanmagan koʻp kvartirali uylarda noqonuniy yashashning oldini olishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Fraksiya aʼzolarining fikricha, mazkur qonun loyihasi inson hayoti va salomatligini muhofaza etish, qurilish sohasida qonuniyligni taʼminlash hamda mas’uliyatni yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

giyohvandlik vositalarini tayyorlashda foydalanilayotgan prekursorlarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmagani huquqiy boʻshliqni yuzaga keltirayotgani taʼkidlandi. Bu esa ayrim shaxslarning javobgarlikdan chetda qolishiga va noqonuniy faoliyatini davom ettirishiga sabab boʻlayotgani aytiladi.

Qonun loyihasi bilan prekursorlarning qonunga xilof muomalasi uchun maʼmuriy va jinoiy javobgarlik belgilash, shu orqali sintetik giyohvandlik vositalari ishlab chiqarilishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish nazarda tutilmoqda.



Fraksiya aʼzolari ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi narkojinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish hamda millat genofondiga tahdid soluvchi omillarga qarshi huquqiy mexanizmlarni yanada kuchaytirishga xizmat

qilishini taʼkidladi.

Muhokama yakunida deputatlar qonun loyihasini qoʻllab-quvvatladi.

Prekursorlar muomalasiga oid qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida prekursorlarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik belgilashga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bogʻliq faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholining, birinchi navbatda, yoshlarning salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, gʻayriqonuniy narkolaboratoriyalarda prekursorlardan foydalangan holda sintetik giyohvandlik vositalarini tayyorlash va tarqatishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, prekursorlarning qonunga xilof muomalasining oldini olish sohada huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Shundan ibtib chiqib, Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodekslarga qoʻshimchalar kiritilmoqda. Yaʼni qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga prekursorlarning muomalasiga oid qoidalarni buzganlik uchun maʼmuriy javobgarlikni belgilovchi yangi norma kiritilyapti. Shuningdek, mazkur huquqbuzarlik maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin takroran sodir etilganida Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlik belgilanishi nazarda tutilmoqda.

– Belgilanayotgan normalar fraksiya aʼzolari tomonidan qizgʻin muhokamadan oʻtkazildi, – deydi fraksiya aʼzosi Ziyodbek Yunusov. – Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi, albatta, prekursorlarning noqonuniy muomalasining oldini olish, sintetik giyohvandlik vositalari ishlab chiqarilishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning sogʻligʻini muhofaza etishga xizmat qiladi.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Milliy maʼruza koʻrib chiqildi

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi milliy maʼruza koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining “Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan agentlik, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, ilmiy muassasalar, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlinmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining doimiy hamkorligiga asoslangan “Korrupsiyaning oldini olish klasteri” joriy etildi.

Shuningdek, maishiy korrupsiyaning oldini olish boʻyicha Andijon tajribasi, fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda faolligini oshirishga qaratilgan Navoiy tajribasi, raqamlashtirishni nazarda tutuvchi Samarqand tajribasi kabi ijobiy malakalar yaratilib, boshqa hududlarga ham tatbiq etilmoqda.

Yigʻilishda fraksiya aʼzolari milliy maʼruzada aks ettirilgan maʼlumotlarni yanada aniq bayon etish, xalqaro tajribalarni chuqurroq oʻrganish boʻyicha taklif va tavsiyalarni bildirgan holda, maʼruzani qoʻllab-quvvatladi.

Yigʻilishda, shuningdek, qurilishi tugallanmagan koʻp kvartirali uylarda noqonuniy yashashning oldini olishga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar diqqat markazida boʻldi. Ushbu qonun loyihasi bilan koʻp kvartirali uylarning qurilishiga masʼul shaxslar yoki mutasaddilar tomonidan belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilinmagan koʻp kvartirali uylarga fuqarolarning koʻchib kirishiga yoʻl qoʻyganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Muhokama chogʻida fraksiya aʼzolari qonun loyihasining ahamiyatiga eʼtibor qaratib, undagi ayrim normalar boʻyicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Oʻrmon fondi yerlari muhofazasi yanada kuchaytiriladi

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab yerga oid munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Yerlarni oʻzbochimchalik bilan egallab olishning oldini olish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining yer munosabatlardagi vakolatlarini aniqlashtirish, qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan boʻsh turgan yer uchastkalaridan samarali foydalanishning huquqiy mexanizmlarini belgilash hamda yer uchastkalarini birlashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash mazkur loyihada nazarda tutilmoqda.

– U yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni taʼminlash, yerga boʻlgan huquqlarning ishonchli himoyasini kuchaytirish hamda qishloq xoʻjaligi sohasida zamonaviy bozor munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi, – deydi fraksiya aʼzosi Oybek Rahimov.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala oʻrmon fondi yerlari muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga boʻldi.

Taʼkidlanganidek, mazkur qonun loyihasi sohada amalga oshirilayotgan keng koʻlamli ishlarning huquqiy



asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Oʻrmon fondi yerlarining alohida muhofaza etilishini taʼminlash maqsadida Yer kodeksiga oʻrmon fondi yerlarini yer fondining boshqa toifasiga oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan hujjat asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda. Shuningdek, oʻrmon fondi yerlarining huquqiy muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Fraksiya aʼzolari mazkur oʻzgartirishlar oʻrmon fondlari yerlarining muhofazasini kuchaytirish, biologik xilmaxillikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda mamlakatimizda ekologik barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidladi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.

INVESTORLAR UCHUN MUSTAHKAM HUQUQIY KAFOLAT

Bugungi kunda global kapital oqimlari uchun raqobat tobora kuchayib, investitsiyalar huquqiy barqarorlik, ishonchli institutlar va zamonaviy moliyaviy infratuzilmaga ega mamlakatlarga yoʻnaltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda Toshkent xalqaro moliya markazining tashkil etilishi Yangi Oʻzbekistonning iqtisodiy siyosatdagi navbatdagi islohoti boʻlish bilan birga, yurtimizning jahon moliya tizimiga institutsional integratsiyalashuvini taʼminlaydigan strategik qadam hisoblanadi.

Sharh

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “Toshkent xalqaro moliya markazi toʻgʻrisida”gi Konstitutsiyaviy Qonun yurtimizda xalqaro moliya institutlari va investorlar uchun huquqiy kafolatlarga ega, zamonaviy boshqaruv standartlariga asoslangan yangi institutsional muhitni shakllantirishga huquqiy asos yaratdi. Mazkur hujjat milliy kapital bozorini rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda Oʻzbekistonning mintaqaviy moliyaviy markaz sifatidagi oʻrnini mustahkamlashga qaratilgan.

Hisob-kitoblarga koʻra, ushbu markazning toʻliq faoliyat yuritishi natijasida 2030-yilga qadar mamlakat iqtisodiyotiga

20 mlrd.dan 25 mlrd. AQSH dollarigacha qoʻshimcha qiymat yaratilishi, yalpi ichki mahsulotning yillik oʻsishiga qoʻshimcha 1 foizlik hissa qoʻshilishi, 15 minggacha yuqori malakali ish oʻrni ochilishi hamda 10 ming nafar mutaxassisning malakasi oshirilishi kutilmoqda. Bu mamlakat iqtisodiyotiga sifat jihatdan yangi bosqichga chiqish imkoniyatini beradi.

Jahon tajribasi xalqaro moliya markazlari investitsiyalarni jalb etish, kapital bozorini rivojlantirish va yuqori qoʻshilgan qiymatga ega moliyaviy xizmatlarni kengaytirishda muhim institut ekanini tasdiqlaydi.

Xalqaro amaliyotda oʻzini oqlagan ana shu yondashuv endilikda Oʻzbekistonda



ham huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Konstitutsiyaviy Qonunda markazning huquqiy maqomi, boshqaruv tizimi, vakolatlari hamda maxsus huquqiy rejimi aniq belgilandi. Shu orqali xalqaro investorlar uchun huquqiy munosabatlarning barqarorligi va prognoz qilinadigan biznes muhitini taʼminlashga qaratilgan mustahkam institut yaratildi.

Qonunga muvofiq markaz hududida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, mazkur Konstitutsiyaviy Qonunga va moliya markazi qarorlariga zid boʻlmagan holda Angliya va Uels umumiy huquqi prinsiplari, qonunchiligi hamda shartnomaviy qonunlar bilan joriy etilgan maxsus huquqiy rejim, investorlar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari, xalqaro

taʼminlashga xizmat qiladi.

Investorlar kapital kiritish toʻgʻrisida qaror qabul qilishda, avvalo, huquqiy xatarlar, sud tizimining mustaqilligi va huquqni qoʻllash amaliyotining barqarorligini baholaydi. Shu bois markazda ingliz umumiy huquqi prinsiplarining qoʻllanilishi xalqaro biznes uchun yaxshi tanish huquqiy muhiti yaratib, Oʻzbekistonning investitsiyaviy raqobatbardoshligini oshiradi.

Bundan tashqari, bugungi global iqtisodiyotda davlatning raqobatbardoshligi uning xalqaro kapital uchun qanday institutsional va huquqiy muhit yaratara olgani bilan belgilanadi. Toshkent xalqaro moliya markazining tashkil etilishi Yangi Oʻzbekistonning ochiq iqtisodiyotni shakllantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va milliy moliya bozorini jahon kapital bozori bilan chambarchas bogʻlashga qaratilgan strategik islohotlarining mantiqiy davomidir.

Konstitutsiyaviy Qonun bilan joriy etilgan maxsus huquqiy rejim, investorlar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari, xalqaro

huquqiy standartlarning tatbiq etilishi hamda uzoq muddatli ragʻbatlantirish choralari mamlakatda raqobatbardosh moliyaviy ekotizimni shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu, oʻz navbatida, xorijiy investitsiyalar oqimini koʻpaytirish, milliy kapital bozorini rivojlantirish va iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan taʼminlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhimi, mazkur islohot Oʻzbekistonning xalqaro investitsiya maydonidagi nufuzini yanada mustahkamlash, mamlakatning institutsional salohiyatini yuksaltirish hamda Markaziy Osiyoning yetakchi moliyaviy markazlaridan biriga aylanishi uchun huquqiy asos yaratadi. Shu maʼnoda, Toshkent xalqaro moliya markazi nafaqat mamlakatimiz uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot modelining ifodasi, balki jahon moliya xaritasida munosib oʻrin egallash sari tashlayotgan strategik qadamidir.

Muhammadjon VALIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Ezgulikning muhtasham manzili

Buxorolik uch opa-singil – Aziza, Izmira va Durdona ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishgach, "Bu bolajonlarning taqdiri endi qanday kechadi?" deya xavotirga tushganlar ko'p bo'ldi. Dunyoda mehr-oqibat, diyonat, ezgulik degan tushunchalar, yaxshilik atalmish daraxtning ildizi mustahkam.

Jiyanlarining taqdiriga befarq bo'lmagan tog'a va uning turmush o'rtog'i Oysapar Rajabova oilaviy bolalar uyida yashab kelayotgan opa-singillarni o'z qaramog'iga olishga, ularga ota-onalik mehrini berishga ahd qiladi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga murojaatdan so'ng Oysapar opa "Tutingan ota-onalar tayyorlov kursi"da saboq oldi. Tog'aning opa-singillarga qarata "Endi sizlar bizning farzandimizsiz" degan gapi o'ksik ko'ngillarga malham bo'ldi.

– Qizlar hozirgi kunda tutingan ota-onasi, kichikintoy ukasi va bobosi bilan birga oila bag'rida yashab kelmoqda, – deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi mas'ul xodimi Zarnigor Nafiddinova. – O'z navbatida, ularga turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Jumladan, markazimiz ruhsunosni tomonidan psixologik korreksion ishlar olib borildi.

Izmira bilan Durdona maktabda tashkil etilgan fan to'garaklariga jalb qilindi. Ularga tikuv mashinasi olib berildi. "Mehrdafatari" jamg'armasi orqali velosiped, noutbuk, o'quv qurollari, dars mashg'ulotlari va yotoq uchun mo'ljallangan mebel hamda mavsumiy kiyim-kechaklar ajratildi. Aziza esa ingliz tili va tikuvchilik to'garagi mashg'ulotlarida qatnashmoqda. Bunga sarflanadigan mablag' "yoshlar daftari" orqali berilyapti. Darvoqe, Azizaning ism-sharifii uy-joyga muhtoj sifatida "Onlayn-navbat" axborot tizimiga ham kiritilgan.

– Mamlakatimizda bolalarni har tomonlaml o'qitish zarur, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetishini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, – deydi xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Jahongir Sharipov. – Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgandan so'ng ushbu yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilib, sohaning huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Jumladan, 2024-2025-yillarda bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar bolalar huquqlarini ta'minlash, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum



bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash hamda zo'ravonlikning oldini olish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kunda viloyatda voyaga yetmagan bolalar soni 709 320 nafarni tashkil etadi. Shundan 23 yoshgacha bo'lgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum yoshlar soni 418 nafar.

Agentlik ish boshlagach, voyaga yetmagan bolalarga vasiy va homiy tayinlash vakolati "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga berildi. Mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyati natijasida mahkamlar tomonidan 6069 nafar bolaga vasiy yoki homiy tayinlandi. Yana 55 nafar bola patronat shaklida oilalarga joylashtirildi. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bolalarni muassasalarda emas, balki oila muhitida tarbiyalash maqsadida yangi tizim joriy etildi. Natijada viloyatda 25 ta oilaviy bolalar uyi hamda 1 ta professional tutingan oila faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ham doimiy e'tiborda. O'tgan davr mobaynida 70 nafar o'g'il-qiz oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli asosda o'qishga kirishga muvaffaq bo'ldi. Joriy yilda esa yana 49 nafarining ushbu imkoniyatdan foydalanishi kutilmoqda. Shuningdek, oliy ta'limni tamomlagan 8 nafar yoshning tanlovsi ishga joylashishiga ko'maklashildi.

Uy-joy bilan ta'minlash masalasi ham agentlik e'tiboridagi muhim yo'nalishlardan biridir. 2024-2025-yillar davomida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 48 nafar bola uy-joy bilan ta'minlandi. Ushbu maqsadlar uchun 12 milliard so'm mablag' ajratildi.

Bu kabi keng qamrovli ishlar turmush qiyinchiliklari girdobiga tushib qolgan har bir bolaning oila bag'rida, mehr va e'tibor muhitida ulg'ayishiga xizmat qilmoqda. Ularning barcha tengqurlari bilan teng muhitda voyaga yetib, hayotdan o'z o'rinlarini topib ketishlariga zamin yaratilgan.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

YOSH KIMYOGARLAR BELLASHUVI

so'zladi. U o'z so'zida o'zbek tilida barcha olimpiada qatnashchilariga qaratdi: "O'zbek xalqining qadimiy rivoyatlarida baxt va ezgulik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi haqida hikoya qilinadi. Sizlar uni allaqachon ko'rdingiz – uning qanotlari O'zbekiston davlat gerbida ham, bu yilgi Xalqaro kimyo olimpiadasi ramzida ham porlab turibdi... Humo qushi barchangizga

o'quvchilarimiz 2025-yilda 29 ta xalqaro fan olimpiadasida ishtirok etib, jami 210 ta medalni ko'lga kiritdi.

Aytish lozimki, 58-Xalqaro kimyo olimpiadasiga tayyorgarlik jarayonlari 2024-yildan boshlab yuborilgan. Jumladan, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan olimpiadalar tajribasi o'rganildi. "IChO 2026" rasmiy



baxt, omad va yorqin kelajak olib kelsin!" deya murojaat qilgani tadbirning yana bir yodda qolarli voqeasi bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni xalqaro fan olimpiadalariga tizimli tayyorlash va zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida

logotipi va veb-sayti ishlab chiqilib, delegatsiyalar bilan ishlash uchun maxsus axborot platformasi yaratildi. Shuningdek, nazariy va amaliy topshiriqlarni tayyorlash uchun xalqaro ilmiy qo'mita shakllantirildi hamda laboratoriyalar xalqaro standartlarga mos jihozlandi. Reagentlar va zamonaviy laboratoriya uskunalarini xarid qilindi.

– Avvalo, tashkilotchilarga minnatdorlik bildirmoqchiman. Quvonarlisi, ularning

Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi").

TADBIRKORLARIMIZNING BELARUSDAGI LOYIHASI

chorvachilikni rivojlantirishga hissa qo'shadi

Ilgari xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sarmoyaviy va iqtisodiy aloqalar davlat miqyosida yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda hududlararo hamkorlik munosabatlari ham tobora mustahkamlanib boryapti. Bunga O'zbekiston va Belarus Respublikasi o'rtasida amalga oshirilayotgan tarmoqlararo loyihalar yaqqol misol bo'ladi.

Hamkorlik

Gap shundaki, yaqinda qashqadaryolik tadbirkorlar Belarus Respublikasining Vitebsk viloyatidan 4 ming gektar ekin maydonini uzoq muddatli ijaraga olib, chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishdi.

– Belarusga safarimiz davomida Vitebsk viloyatining Braslav, Shumilin va Postav tumanlaridagi chorvachilik komplekslari, savdo nuqtalari faoliyati bilan yaqindan tanishdik, – deydi qarshilik ko'p tarmoqli biznes egasi Iskandar Qudratov. – Dastlabki safarimiz o'ta samarali o'tdi. Yakunda "Asl Yuksalish Savdo", "Muborak qorako'chilik" korxonalari bilan Shumilin tumanida joylashgan

"Sirotnitskiy" chorvachilik fermasi o'rtasida uzoq muddatli shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, ijaraga olingan yerdan unumli foydalanish uchun zarur urug'lik, texnika va boshqa kerakli vositalar bilan Belarus tomoni ta'minlaydi. Bizdan tashabbuskorlik, yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash talab etiladi.

Loyihaning birinchi bosqichi doirasida shu yilning o'zida 1 ming bosh naslli qoramol parvarishlash yo'lga qo'yiladi. Shu maqsadda 4 ming gektar yerda ozuqa ekinlari ekish boshlab yuborildi. Buning uchun Qashqadaryodan 60 nafar yosh jalb etildi. Ular ham ishlaydi, ham yangi kasblarga o'qitiladi.

Qashqadaryo viloyati hokimining maslahatchisi Shuhrat Tursunovning aytishicha, qo'shma loyihani amalga

oshirishda O'zbekistonning Belarusdagi elchisi yaqindan ko'maklashmoqda. Ikki davlat shaharlari o'rtasida aviaqatnovlar sonini oshirish, sayyohlik, savdo, transport-logistika sohaslarida teng manfaatli aloqalarni kengaytirish borasida ham ishlar olib borilyapti.

Yana bir e'tiborli jihati, "Asl Yuksalish Savdo" korxonasi bilan "Dobronom" savdo tarmog'i o'rtasida eksport shartnomasi imzolandi. Tomonlar kelishuviga ko'ra, har yili O'zbekistonda yetishtirilgan 60 ming tonna quruq mevalar, dukkakli va poliz mahsulotlari, uzum yetkazib beriladi. Chunki Belarus bozorida tilimi tilni yoradigan qovun-tarvuzlar, vitaminaga boy mevalar uzumlarimiz azaldan mashhur bo'lib, ularga talab tobora ortib boryapti. Shu bois qashqadaryolik tadbirkorlar ushbu yo'nalishdagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalar ustida ishlamoqda.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

Pistazorlar Nurobodga yangi hayot olib kelmoqda

Pista issiqsevar, qurg'oqchilikka chidamli va serhosil bo'lib, ayrim manbalarda 40 daraja issiq va sovuqqa chidashi hamda ming yilgacha hosil berishi mumkinligi qayd etilgan. Shu jihatlari bilan hozirgi suv tanqisligi kuchayayotgan, agrar sohada eksport barqarorligini ta'minlash muhim bo'lgan vaziyatda eng maqbul o'simlik hisoblanadi.

Nurobod tumani iqlimi pista yetishtirishga mos bo'lib, yerlarining asosiy qismini bepoyon qir-adirlar tashkil etadi. Hududda suv kam, yozi issiq, qishi izz'irindi. Shu bois ham tumanda pista plantatsiyalari barpo etilmoqda.

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan Saroyqo'rg'on davlat o'rmon xo'jaligida pistazorlar tashkil qilish ishlari boshlab yuborilgan.

500 nafar mahalliy aholi ishli bo'ladi

– O'tgan yili kuzda pista ekish ishlarini boshlagan edik, – deydi Nurobod tumanidagi Saroyqo'rg'on davlat o'rmon xo'jaligi direktori Ahmadjon Sag'dullayev. – Buning uchun Nurobod tumani zaxira yerlaridan o'rmon xo'jaligimizga 50 ming gektar yer maydoni ajratish belgilangan. 10 yillik dastur doirasida, ya'ni 2036-yilgacha har yili 5 ming gektardan pistazorlarni barpo qilish vazifasi qo'yilgan. Mazkur yirik loyihani amalga oshirish, sug'orish tizimini yo'lga qo'yish uchun Davlat byudjetidan 20 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda. Bunda 50 dona tik quduq, shuncha suv havzalari o'rnatiladi va hududdagi Po'latchi, Nurdum, Mash'al va boshqa mahallalarning kam ta'minlangan oilalaridagi 500 dan ortiq ishsiz fuqarolar bandligi ta'minlanadi. Ularga pudrat shartnomasi asosida 5 gektardan



10 gektargacha yer ajratib beriladi. Maydonlar tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan holda topshiriladi. Bugungi kunda viloyatimizdagi 10 ta o'rmon xo'jaligining har birida 500 gektar maydonda ishlar qiz'ig' olib borilmoqda.

Nurdum mahallasidagi 6 qishloqning 1300 xonadonida 6 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi,

ularning 70 dan ortig'i kam ta'minlangan oilalar hisoblanadi. Rejaga ko'ra, ularni ish bilan ta'minlash va doimiy daromadga ega bo'lishi uchun dastlab pista maydonlari ajratiladi. Ushbu mahalladagi 400 dan ortiq xonadonlarda ko'p yildan buyon pista yetishtirilishi va aholida o'simlik borasida yetarlicha tajriba borligini hisobga olsak, yaqin vaqtda bu yerda mo'may daromad manbaiga ega yangi drayver yo'nalish paydo bo'ladi.

Mutaxassislarning o'rganishlariga ko'ra pistani dastlabki uch yilda doimiy ravishda sug'orish yetarli bo'ladi, keyin ildizning yerga chuqur kirib borishi hisobiga pastki qatlamdan zarur namlikni oladi va uzoq yillar hosil beradi.

Yer degradatsiyasining oldi olinadi

– Lalmi maydonlarda pistazorlarni barpo etishning samarali ekanini ilm bilan asoslashga harakat qilyapmiz, – deydi O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti seleksiya, urug'chiliri va ko'chatchilik laboratoriyasi mudiri, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor Bobomurod Eshonqulov.

– Uning mevasi yuqori dietetik xususiyatga ega bo'lib, tarkibida 49 – 60 foiz moy, 15 – 20 foiz oqsil va 3 – 8 foiz qand mavjud. To'g'ri parvarish bilan gektariga 5-6 tonnagacha yuqori sifatli hosil beradi.

Pista o'stirish dastlab 1937-yilda Bobotog'

tizmasida boshlangan bo'lsa, hozir O'zbekistonda tabiiy holda deyarli barcha to'g' tizmalarida uchraydi. Respublikada urug'idan ekib o'stirilgan pistazorlar yil sayin ortib bormoqda. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot institutida pistaning 10 ga yaqin navlari yaratilgan, 30 dan ortiq pista navlari kolleksiyasi barpo etilgan. Tumanning Kattaqo'rg'on suv ombori atrofidagi lalmi qir-adirliklarda pistazorlar tashkil qilish tarixi deyarli 100-yilni qamrab oladi. 1949-yilda suv ombori qurilganidan so'ng uning atrofidagi qir'oqlarni eroziyadan saqlash uchun pistazorlar barpo etish boshlangan. O'shanda asosiy vazifa sifatida tuproq yemirilishi, eroziyaning oldini olish bo'lgan. Ayni vaqtda bu daromadli o'simlik tomchilatib sug'orish yo'li bilan adirliklarga ekilib, qiyaliklarda pista plantatsiyalariga asos solinmoqda.

Tumanda joriy yilning bahor mavsumida 252 gektar yerga ko'chatdan, 290 gektarga urug'dan jami 542 gektar maydonda pista plantatsiyalari tashkil etildi. Ko'chatlar tumanlardagi o'rmon xo'jaliklarida tayyorlandi.

Shu kunlarda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi "Yashiloyiha" instituti tomonidan yerlarni o'rganish, tuproq-iqlim tahliili va ekish sxemalarni ishlab chiqilmoqda. Loyiha yakunida yer degradatsiyasining oldini olish, eksportbop mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish, aholi bandligi hamda hududning ekologik barqarorligini ta'minlash maqsad qilingan.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").

Tahririyat pochtasidan

Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi binosida ta'mirlash ishlari boshlandi

Gazetamizning shu yil 23-iyun sonida "Yo'l azobini tortayotgan muallimlar yoki Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi binosi ta'mirlash uchun bir yildan buyon yopib qo'yilgani haqida" nomli maqola e'lon qilingan edi.



Maqolada Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazining Qarshi shahridagi binosi 2025-yilning iyun oyidan "ta'mirlanadi" deya yopib qo'yilgani, markaz faoliyati esa Shahrisabz shahridagi qo'shimcha binoga ko'chirilgani, natijada viloyatning g'arbiy, shimoliy va janubiy hududlari – Muborak, Koson, Kasbi, Mirishkor, Qarshi, Nishon, Dehqonobod tumanlaridan malaka oshirish kurslariga yuborilgan o'qituvchilar har kuni 200 – 250 kilometr gacha yo'l bosib, olis Shahrisabzga qatnashga majbur bo'layotgani qalqamga olingan.

Shuningdek, oradan bir yil vaqt o'tsa-da, binoda ta'mirlash ishlari boshlanmagani, shuncha vaqt mobaynida inshoot bo'sh turgani bilan bog'liq muammo o'rta qatnashgan.

Mazkur maqola yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi o'z munosabatini bildirdi. Vazir o'rinbosari T. Komilov imzosi bilan kelgan xatda ma'lum qilinishicha, Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazining Qarshi shahridagi binosini ta'mirlash bo'yicha xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 2-martdagi qaroriga asosan, mahalliy byudjetning erkin qoldiq mablag'lari hisobidan 3 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Bugungi kunda viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida markaz binosini mukammal ta'mirlash bo'yicha "1-son kompleks loyiha qurilish va montaj" XK bilan 2026-yil 1-iyunda shartnoma tuzilib, ayni paytda pudratchi tashkilot tomonidan ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Xatda obyektida qurilish-montaj ishlarining tugash davri 2026-yilning 21-noyabr sanasi etib belgilangani aytiladi.

Xalqimizning ertasi bo'lgan yosh avlod kamolotiga kamarbasta insonlar – o'qituvchi va murabbiylarni yo'l azobiga duchor etgan mazkur masala yechimi bundan keyin ham tahririyat nazoratida bo'ladi.

"Xalq so'zi".

Polshada o'zbek kinosi va seriallarini namoyish etish bo'yicha madaniy-kino loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, uning dastlabki bosqichida 10 ta badiiy film va 10 ta serial polyak tiliga tarjima qilinib ovozlashtiriladi hamda efriga uzatiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 629. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 02.00 Topshirildi – 02.00

1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.